NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Bakalavriat

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: XONNAZAROV ELYOR G‘OFUROVICH** **Fan va texnologiyalar universiteti** **falsafa doktori (PhD)**
	**A’zo: QAHHAROVA SABOHAT ABDUG‘AFUROVNA** **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti** **falsafa doktori (PhD), dotsent**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260110
Xulosa raqami	1676
Xulosa sanasi	23.07.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Namangan viloyati, Namangan tumani, Boburshox ko‘chasi, 161-uy. Litsenziya: № 356, 28.02.1992. Guvohnoma: MAS № 0000473, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	60230100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 356, 28.02.1992
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	60230100 – Philology and Language Teaching: Uzbek Language
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	60230100 – Филология и преподавание языков: узбекский язык
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	masofaviy
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	240 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Filolog. Pedagog (o‘zbek tili va adabiyoti)
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	200 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Namangan viloyati, Namangan tumani, Bobur shox ko‘chasi, 130-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Qisman muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Qisman muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturini boshqarish va uning sifatini ichki ta’minlash bo‘yicha zarur tashkiliy tuzilmalar shakllantirilgan bo‘lib, O‘zbek tilshunosligi hamda O‘zbek adabiyotshunosligi kafedralarining vazifalari va mas’uliyat doiralari tegishli kafedra nizomlarida belgilangan. Ta’lim jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va sifat ko‘rsatkichlarini baholashga qaratilgan ichki mexanizmlar yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, 1.3-mezon doirasida ayrim kamchiliklar aniqlangan. Xususan, ichki sifatni ta’minlashga oid hujjatlarni davriy ko‘rib chiqish va yangilash tartibi rasmiy jihatdan mustahkamlanmagan, manfaatdor tomonlardan kelib tushgan taklif va fikr-mulohazalarni ko‘rib chiqish natijalari, ularning qabul qilinishi yoki rad etilishi sabablari yetarli darajada hujjatlashtirilmagan. Mazkur holatlar sifatni ichki ta’minlash jarayonlarining izchilligi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqa mexanizmlarining shaffofligini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Ichki me’yoriy hujjatlarni muntazam yangilash, takliflarni tizimli qayd etish hamda ular yuzasidan qabul qilingan qarorlarni manfaatdor tomonlarga yetkazish tartibini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Baholash natijalariga ko‘ra, boshqaruv va ichki sifatni ta’minlash yo‘nalishidagi qolgan mezonlar belgilangan talablarga muvofiq deb topildi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o‘quv natijalari amaldagi malaka talablari, o‘quv reja hamda fan dasturlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ularning ichki va xalqaro mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi ta’minlangan. Dastur tarkibidagi fanlar bo‘yicha o‘quv yuklamalari aniq va o‘lchovli ko‘rsatkichlar asosida taqsimlangan, nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda tadqiqot faoliyatini amalga oshirish jarayonlarining o‘zaro uzviyligi nazarda tutilgan. Masofaviy ta’lim shaklida talabalarni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘zbek tili

grammatikasi, nutq madaniyati, o‘qitish metodikasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Fanlar mazmunining izchil tashkil etilishi talabalarda filologik bilimlar bilan bir qatorda pedagogik faoliyat uchun zarur kasbiy va metodik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masofaviy o‘qitish sharoitida nazariy tayyorgarlikni amaliy-metodik faoliyat bilan bog‘lash bo‘lajak filolog-pedagoglarning mustaqil ishlash, til va adabiyotga oid bilimlarni tahlil qilish hamda ularni ta’lim amaliyotida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi. Dastur maqsadlari, o‘quv natijalari, fanlar mazmuni va o‘quv yuklamalarining o‘zaro muvofiqligi ta’lim jarayonining izchil tashkil etilishini ta’minlaydi. Tahlil natijalari ta’lim dasturining mazmuni va tuzilishi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishini ko‘rsatdi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

O‘quv jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholash tizimi amaldagi me’yoriy-huquqiy talablar asosida shakllantirilgan bo‘lib, o‘quv reja hamda fan dasturlari 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyruq bilan tasdiqlangan malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ta’lim jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklining tashkiliy hamda pedagogik xususiyatlari inobatga olingan, talabalarning mustaqil bilim olishi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan yondashuvlar nazarda tutilgan. Talabalar bilimini baholash mezonlari va tartiblarining oldindan e’lon qilinishi baholash jarayonlarining ochiqligi, shaffofligi hamda xolisligini ta’minlashga xizmat qiladi. Akademik halollik tamoyillariga rioya etish, baholash natijalari yuzasidan apellyatsiya murojaatlarini ko‘rib chiqish va talabalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari joriy etilgan. Ayrim fanlarda mustaqil ta’lim ulushining belgilangan me’yorlardan yuqoriligi qayd etilgan bo‘lsa-da, ushbu holat masofaviy ta’lim shaklining o‘ziga xos talablari bilan asoslab berilgan. Masofaviy o‘qitish sharoitida baholash natijalarining ishonchliligi, xolisligi va tekshiriluvchanligini ta’minlash ta’lim sifatini nazorat qilishning muhim sharti hisoblanadi. O‘rganish yakunlariga ko‘ra, o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim natijalarini baholash va akademik halollikni ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiq deb topildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda tegishli ichki me’yoriy tartiblar asosida shakllantirilgan. Talabalarni o‘qishga qabul qilish, o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish

jarayonlarini tartibga soluvchi ichki hujjatlar belgilangan qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalar harakati bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ta’minlangan. Talabalarning murojaatlari va shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun tegishli mexanizmlar joriy etilgan, jumladan, 451-son buyruq asosida apellyatsiya tartibi belgilangan hamda taklif va murojaatlarni qabul qilish uchun maxsus qutilardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Talabalarni akademik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllantirilganligi ularning ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlarini aniqlash va tegishli yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun murojaat va apellyatsiya kanallaridan uzluksiz foydalanish imkoniyatini ta’minlash, ularning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va natijalari yuzasidan qayta aloqa o‘rnatish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizmlar talabalar huquqlarini himoya qilish, ta’lim xizmatlaridan teng foydalanish va akademik faoliyatni izchil davom ettirish uchun zarur tashkiliy sharoitlarni yaratadi. Baholash natijalariga ko‘ra, talabalar faoliyatini boshqarish, murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda akademik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini amalga oshirishda ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar shakllantirilgan. Yuqori ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash, professor-o‘qituvchilarni doktorantura bosqichida ilmiy izlanishlarini davom ettirishga yo‘naltirish hamda ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish ishlari tegishli kafedralar va ilmiy bo‘limning istiqbol rejalari asosida amalga oshiriladi. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalar chop etishi, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishi va ilmiy-amaliy loyihalarda faol ishtirok etishini moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirish tartiblari joriy etilgan. Rag‘batlantirish mezonlarining shaffofligi va erishilgan natijalarga yo‘naltirilganligi pedagog xodimlarning ilmiy faolligini oshirish hamda kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ilmiy va pedagogik faoliyat natijalarining muntazam monitoring qilinishi mavjud kadrlar salohiyatini baholash, rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va istiqboldagi vazifalarni belgilash imkonini beradi. O‘zbek filologiyasi sohasida ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar salohiyatini mustahkamlash ta’lim mazmunining ilmiy asoslanganligini ta’minlash, o‘qitish metodikasini

takomillashtirish va masofaviy ta’lim sifatini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. O‘rganish natijalari inson resurslarini rivojlantirish, ilmiy-pedagogik faoliyatni rag‘batlantirish va kadrlar salohiyatini monitoring qilish mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqligini tasdiqladi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik infratuzilma va axborot-resurs bazasi shakllantirilgan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan o‘quv xonalari monitorlar, videoproyektorlar hamda kompyuter texnikasi bilan jihozlangan. Kutubxona fondining deyarli to‘liq raqamlashtirilganligi va xalqaro elektron ta’lim resurslariga obuna mavjudligi masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalarning o‘quv-uslubiy materiallardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’lim dasturida laboratoriya mashg‘ulotlari nazarda tutilmaganligi sababli mavjud moddiy-texnik ta’minot fanlarning nazariy va amaliy-metodik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilgan. O‘quv binolarida birinchi tibbiy yordam vositalari va evakuatsiya yo‘llarining mavjudligi xavfsizlik talablarini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, 6.4-mezon doirasida inklyuziv ta’lim resurslaridan amalda foydalanishni tasdiqlovchi hujjatli dalillar yetarli emasligi aniqlangan. Xususan, audiodarsliklar, subtitrli videomateriallar, Brayl displeylari va JAWS dasturining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanmagan. Masofaviy ta’lim sharoitida raqamli o‘quv kontentining qulayligi, ta’lim platformasining barqaror ishlashi va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega talabalar uchun resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Baholash yakunlariga ko‘ra, moddiy-texnik va axborot-resurs ta’minoti yo‘nalishidagi qolgan mezonlar belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiq deb topildi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Ichki sifat hujjatlarining davriy ko‘rib chiqilishi va yangilanishi tartibi rasmiylashtirilmagan, manfaatdor tomonlar takliflarining inobatga olinishi yoki rad etilishi hujjatlashtirilmagan (1.3-mezon qisman muvofiq).
- ✓Inklyuziv ta’lim uchun audiodarsliklar, subtitrli videolar, Brayl displaylari va maxsus dasturiy ta’minotning amaliy qo‘llanilishi tasdiqlovchi hujjatlar bilan isbotlanmagan (6.4-mezon qisman muvofiq).
- ✓Hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha dalillar (birinchi tibbiy yordam, evakuatsiya sxemalari, xavfsizlik jurnallari) asosan deklarativ bayon qilingan, elektron kutubxonada multimedia va audiovizual kontent ulushi yetarli emas.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Ichki hujjatlarni kamida yiliga bir marta ko‘rib chiqish va yangilash tartibini bayonnoma bilan rasmiylashtirish hamda manfaatdor tomonlar takliflarini ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va natijasini qaytarish tizimini joriy etish (1.3-mezon).
- ✓Inklyuziv o‘quv resurslari — audiodarsliklar, subtitrli videolar, Brayl va ekran o‘qish dasturlaridan foydalanishni amaliy joriy etib, hujjatlashtirish (6.4-mezon).
- ✓Masofaviy platformaning multimedia kontentini (video-ma’ruzalar, interaktiv kurslar) kengaytirish va xavfsizlik bo‘yicha amaliy dalillarni hujjatlashtirish.
- ✓Elektron kutubxona fondini o‘zbek filologiyasi bo‘yicha zamonaviy xorijiy manbalar bilan boyitish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

60230100 – “Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili” bakalavriat (masofaviy) ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta’lim jarayonini tashkil etish va baholash mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik ta’minot belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida har tomonlama o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim dasturini boshqarish uchun mas’ul kafedralar faoliyati tegishli ichki me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan, sifatni ichki ta’minlash va monitoring qilish mexanizmlari shakllantirilgan. Dastur mazmuni amaldagi malaka talablari, Milliy malakalar ramkasi hamda ichki va xalqaro mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarda filologik bilimlar, pedagogik kompetensiyalar va amaliy-metodik ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Masofaviy o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim shaklining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingan, talabalar bilimini baholashning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, akademik halollik tamoyillariga rioya etish hamda apellyatsiya murojaatlarini ko‘rib chiqish tartiblari joriy etilgan. Talabalarni o‘qishga qabul qilish, akademik harakatini tartibga solish va qo‘llab-

quvvatlash jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish, ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish va kasbiy o‘sishini monitoring qilish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Moddiy-texnik va axborot-resurs ta’minoti doirasida kompyuter sinflari, zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan o‘quv xonalari, deyarli to‘liq raqamlashtirilgan kutubxona fondi hamda xalqaro elektron ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, ichki sifatni ta’minlashga oid hujjatlarni davriy ko‘rib chiqish va yangilash tartibini rasmiylashtirish, manfaatdor tomonlarning takliflari yuzasidan qabul qilingan qarorlarni hujjatlashtirish hamda inklyuziv ta’lim resurslaridan amaliy foydalanishni tasdiqlovchi dalillar bazasini mustahkamlash zarurligi aniqlangan. Oltita bob doirasida ko‘rib chiqilgan 27 ta akkreditatsiya mezonidan 25 tasi muvofiq, 1.3 va 6.4-mezonlar esa qisman muvofiq deb topilgan. Qayd etilgan kamchiliklar tegishli tashkiliy choralarni amalga oshirish, hujjatlashtirish tartiblarini takomillashtirish va inklyuziv resurslar bilan ta’minlashni kuchaytirish orqali bartaraf etilishi mumkin bo‘lib, ta’lim dasturini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydi. Umuman olganda, 60230100 – “Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili” bakalavriat (masofaviy) ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000473) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot